



UKRAINADA MAKROIQTISODIY BEQARORLIK SHAROITIDA INFLYATSIYA NOANIQLIGI VA IQTISODIY O'SISH TAHLILI

Mamasobirov Dilmurod Ernazarovich

O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasining katta o'qituvchisi

dilmurod.mamasobirov@mail.ru

ORCID: 0009-0000-5467-2812

ANALYSIS OF INFLATION UNCERTAINTY AND ECONOMIC GROWTH UNDER CONDITIONS OF MACROECONOMIC INSTABILITY IN UKRAINE

Mamasobirov Dilmurod Ernazarovich

Senior Lecturer at the International Islamic Academy of Uzbekistan

dilmurod.mamasobirov@mail.ru

ORCID: 0009-0000-5467-2812

JEL classification: E31, O11, P24

Annotatsiya. Mazkur maqolada Ukrainada inflyatsiya beqarorligi va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlik tahlil qilingan. Tadqiqot davomida Ukrainaning 2000–2024-yillardagi yillik inflyatsiya darajasi va yalpi ichki mahsulot ko'rsatkichlari asosida makroiqtisodiy dinamikalar o'rganildi. Tahlil natijalari Ukrainada inflyatsiya darajasining yuqori o'zgaruvchanligi iqtisodiy o'sish jarayonlariga salbiy ta'sir ko'rsatishini ko'rsatdi. Ayniqsa, geosiyosiy inqirozlar, valyuta kursining qadrsizlanishi, tashqi iqtisodiy bosimlar va urush omillari inflyatsion beqarorlikni kuchaytirgan hamda iqtisodiy rivojlanish sur'atlarini izdan chiqargan. Tadqiqot natijalariga asoslanib, narxlar barqarorligini ta'minlash, valyuta risklarini kamaytirish, investitsion muhitni yaxshilash va institutsional islohotlarni kuchaytirish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: inflyatsiya, inflyatsiya beqarorligi, iqtisodiy o'sish, yalpi ichki mahsulot, makroiqtisodiy barqarorlik, Ukraina iqtisodiyoti, monetar siyosat, valyuta kursi, geosiyosiy risklar.

Abstract. This article examines the relationship between inflation instability and economic growth in Ukraine. The study analyzes macroeconomic dynamics based on annual inflation rates and gross domestic product indicators of Ukraine for the period 2000–2024. The findings indicate that high volatility in inflation has a negative impact on economic growth. In particular, geopolitical crises, currency depreciation, external economic pressures, and war-related factors have intensified inflation instability and disrupted economic development. Based on the findings, practical recommendations are proposed to strengthen price stability, reduce exchange rate risks, improve the investment environment, and accelerate institutional reforms.

Key words: inflation, inflation instability, economic growth, gross domestic product, macroeconomic stability, Ukrainian economy, monetary policy, exchange rate, geopolitical risks.

Kirish

Inflyatsiya noaniqligi iqtisodiy barqarorlik va barqaror iqtisodiy o'sishga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi muhim makroiqtisodiy omillardan biri hisoblanadi.

Ayniqsa, institutsional zaifliklar, geosiyosiy beqarorlik va tashqi iqtisodiy shoklarga moyil bo'lgan mamlakatlarda inflyatsiya noaniqligi yanada keskin namoyon bo'ladi. Mo'tadil va oldindan bashorat qilinadigan inflyatsiyadan farqli ravishda, inflyatsiya noaniqligi uy xo'jaliklari, investorlar hamda siyosat yurituvchilar uchun kelajakdagi iqtisodiy sharoitlarni baholashni murakkablashtiradi, narx signallarini buzadi hamda uzoq muddatli investitsion qarorlarni cheklaydi [1, 2].

Ukraina inflyatsiya noaniqligi va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganish uchun dolzarb misollardan biri hisoblanadi. So'nggi o'n yillikda ushbu mamlakat valyuta kursining keskin qadrsizlanishi, siyosiy inqirozlar, tashqi iqtisodiy bosimlar va institutsional muammolar sababli yuqori inflyatsion beqarorlikni boshdan kechirdi [3]. Xususan, 2014-yildan boshlab geosiyosiy mojarolar va iqtisodiy tangliklar Ukraina iqtisodiyotining makroiqtisodiy ko'rsatkichlariga sezilarli ta'sir ko'rsatdi.

Ukrainada inflyatsiya jarayonlari ko'pincha chiziqli bo'lmagan xarakterga ega bo'lib, nisbatan barqaror davrlar kutilmagan narxlar sakrashi bilan almashib turdi. Mamlakatning importga qaramligi va tashqi moliyaviy omillarga sezgirliigi sababli valyuta kursidagi o'zgarishlar inflyatsion bosimlarning asosiy uzatish kanallaridan biri bo'lib xizmat qilgan [4]. Bunday holat biznes subyektlari uchun noaniqlikni oshirib, investitsion faollikni kamaytiradi, aholi xarid qobiliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi va iqtisodiy o'sish sur'atlarini sekinlashtiradi [2].

Ukraina Milliy bankining monetar siyosatidagi asosiy maqsad narxlar barqarorligini ta'minlashdan iborat. Past va barqaror inflyatsiya aholi real daromadlarini saqlash, uzoq muddatli investitsiyalarni rag'batlantirish, bandlikni qo'llab-quvvatlash

hamda iqtisodiy rivojlanish uchun muhim omil hisoblanadi [5].

Shu bilan birga, inflyatsiya noaniqligining yuqori darajasi ushbu maqsadlarga erishishni qiyinlashtiradi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi Ukrainada inflyatsiya noaniqligi va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlikni yillik makroiqtisodiy ma'lumotlar asosida tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot natijalari inflyatsiyani boshqarish, monetar barqarorlikni ta'minlash hamda uzoq muddatli iqtisodiy rivojlanish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishda foydali bo'lishi mumkin.

Adabiyotlar sharhi. Inflyatsiya noaniqligi va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlik makroiqtisodiy adabiyotlarda keng o'rganilgan mavzulardan biri hisoblanadi. Ushbu yo'nalishdagi nazariy yondashuvlardan biri Fridman tomonidan ilgari surilgan bo'lib, unga ko'ra yuqori inflyatsiya kelajakdagi narxlar bo'yicha noaniqlikni oshiradi, resurslarning samarali taqsimlanishini buzadi hamda investitsion qarorlarni cheklaydi, natijada iqtisodiy o'sishga salbiy ta'sir ko'rsatadi [1]. Ball tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ham yuqori inflyatsiya inflyatsiya noaniqligini kuchaytirishi va bu iqtisodiy faoliyatga salbiy ta'sir qilishi qayd etilgan [2].

O'tish iqtisodiyotiga ega mamlakatlarda ushbu bog'liqlik yanada murakkab xarakterga ega. Bunday mamlakatlarda institutsional islohotlar, monetar siyosatning yetarlicha shakllanmaganligi, valyuta kursining yuqori o'zgaruvchanligi va tashqi shoklar inflyatsiya noaniqligini oshiruvchi asosiy omillar sifatida ko'riladi [3]. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, makroiqtisodiy beqarorlik yuqori bo'lgan mamlakatlarda inflyatsiya noaniqligining iqtisodiy o'sishga ta'siri rivojlangan mamlakatlarga nisbatan kuchliroq bo'ladi [4].

Ukraina ushbu masalada alohida qiziqish uyg'otuvchi mamlakatlardan biridir. So'nggi yillarda ushbu mamlakatda geosiyosiy tangliklar, milliy valyutaning qadrsizlanishi, tashqi iqtisodiy bosimlar va institutsional zaifliklar sababli inflyatsiya jarayonlari yuqori o'zgaruvchanlikni namoyon etgan [5]. Ukraina Milliy banki tomonidan chop etilgan hisobotlarda narxlar barqarorligini ta'minlash iqtisodiy o'sish uchun muhim omil sifatida e'tirof etilgan [6].

Shu bilan birga, Ukrainada aynan inflyatsiya noaniqligi va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlikni oddiy yillik makroiqtisodiy ma'lumotlar asosida baholovchi tadqiqotlar yetarli emas. Mazkur maqola ushbu bo'shliqni qisman to'ldirishga qaratilgan bo'lib, Ukrainadagi inflyatsiya noaniqligi va iqtisodiy o'sish dinamikasini tahlil qiladi.

Metodologiya. Mazkur tadqiqotda Ukrainada inflyatsiya noaniqligi va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qilish uchun qiyosiy tahlil usulidan foydalanildi.

Tadqiqot uchun Ukraina bo'yicha yillik inflyatsiya darajasi hamda iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlari asosiy ma'lumot manbasi sifatida tanlandi. Ma'lumotlar xalqaro ochiq statistik bazalardan shakllantirildi va tanlangan davr bo'yicha dinamik qator ko'rinishida tahlil qilindi [6].


Mazkur tadqiqotda inflyatsiya noaniqligi bevosita inflyatsiya darajasidagi keskin o'zgaruvchanlik va yillar kesimidagi tebranishlar orqali baholandi. Chunki inflyatsiya ko'rsatkichining yuqori beqarorligi kelajakdagi narxlar bo'yicha noaniqlikni ifodalaydi hamda iqtisodiy agentlarning qaror qabul qilishiga ta'sir ko'rsatadi [1].

Tahlil jarayonida dastlab Ukrainadagi inflyatsiya va iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlarining dinamikasi grafik va jadval ko'rinishida ko'rib chiqildi. Keyingi bosqichda ushbu ko'rsatkichlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik Pearson korrelyatsiya tahlili yordamida baholandi. Ushbu usul ikki iqtisodiy ko'rsatkich o'rtasidagi bog'lanish yo'nalishi va kuchini aniqlash imkonini beradi.

Bundan tashqari, Ukrainadagi geosiyosiy beqarorlik, valyuta kursi tebranishlari hamda tashqi iqtisodiy omillarning inflyatsiya va iqtisodiy o'sishga ta'siri sifat jihatdan muhokama qilindi.

Mazkur metodologiya Ukrainadagi inflyatsiya noaniqligi va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi umumiy tendensiyalarni aniqlash hamda mavjud bog'liqlikni baholash imkonini beradi.

Natijalar. Ukraina iqtisodiyotida inflyatsiya dinamikasi monetar siyosatning asosiy indikatorlaridan biri hisoblanadi. Ukraina Milliy banki (NBU) tomonidan inflyatsiya ko'rsatkichlari mamlakatning joriy va istiqboldagi makroiqtisodiy holatini baholashning muhim vositasi sifatida ko'rib chiqiladi. Shu sababli inflyatsiya bo'yicha hisobotlar muntazam ravishda e'lon qilinib, monetar siyosatning asosiy maqsadi sifatida narxlar barqarorligini ta'minlash belgilangan [6]. Narxlar barqarorligi aholi real daromadlarini himoya qilish, jamg'armalarning qadrsizlanishini kamaytirish, investitsion muhitni yaxshilash hamda uzoq muddatli iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlash uchun muhim omil hisoblanadi.




1-rasm. Ukrainada yillik inflyatsiya darajasi, 2000–2024-yillar

1-rasm ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, Ukrainada inflyatsiya darajasi tahlil qilinayotgan davr davomida yuqori o'zgaruvchanlikni namoyon etgan. Ayrim yillarda inflyatsiya nisbatan past darajada shakllangan bo'lsa, ayrim davrlarda keskin oshish holatlari kuzatilgan. Xususan, 2000-yillar boshida inflyatsiya yuqori darajada bo'lgan bo'lsa, keyinchalik nisbatan pasayish kuzatilgan. 2008-yildagi global moliyaviy inqiroz davrida inflyatsion bosim yana kuchaygan.

Eng keskin o'sish esa 2015-yilda kuzatilgan bo'lib, inflyatsiya qariyb 50 foiz

darajaga yetgan. Ushbu holat mamlakatdagi siyosiy beqarorlik, geosiyosiy mojaro, milliy valyutaning sezilarli qadrsizlanishi hamda tashqi iqtisodiy bosimlar bilan izohlanadi. Keyingi yillarda makroiqtisodiy barqarorlashtirish choralarining ta'siri natijasida inflyatsiya pasaygan bo'lsa-da, 2020-yillarning boshlarida yana inflyatsion tebranishlarning kuchayishi kuzatilgan. Bu esa Ukraina iqtisodiyotining tashqi shoklarga, import narxlarini o'zgarishiga va valyuta kursi tebranishlariga yuqori darajada sezgir ekanligini ko'rsatadi.



2-rasm. Ukrainaning nominal yalpi ichki mahsuloti (GDP), 2000–2024-yillar

2-rasmda Ukrainaning nominal yalpi ichki mahsuloti dinamikasi keltirilgan bo‘lib, umumiy trend uzoq muddatda o‘shish yo‘nalishida ekanligi ko‘rinadi. 2000-yillardan boshlab iqtisodiy faollikning oshishi natijasida GDP hajmi izchil o‘shib borgan. Biroq bu o‘shish barqaror xarakterga ega bo‘lmagan.

Xususan, 2009-yildagi global moliyaviy inqiroz Ukraina iqtisodiyotiga sezilarli salbiy ta‘sir ko‘rsatgan. Bundan ham keskinroq pasayish 2014–2015-yillarda kuzatilgan bo‘lib, bu davr siyosiy inqiroz, qurolli mojaro va iqtisodiy beqarorlik bilan bog‘liq bo‘lgan. Keyingi yillarda iqtisodiy tiklanish kuzatilgan bo‘lsa-da, GDP dinamikasida yuqori tebranishlar saqlanib qolgan.

2020-yillarda esa Ukraina iqtisodiyotining geosiyosiy xavflarga yuqori darajada bog‘liqligi yana yaqqol namoyon bo‘ldi. Urush oqibatida mamlakat infratuzilmasiga katta zarar yetdi, ishlab chiqarish zanjirlari izdan chiqdi, energetika tizimiga bosim kuchaydi hamda aholi migratsiyasi keskin oshdi [6]. Xalqaro tashkilotlar ma‘lumotlariga ko‘ra, Ukrainada

urush oqibatida milliardlab AQSh dollari miqdorida iqtisodiy zarar yuzaga kelgan.

Bundan tashqari, Ukraina hali ham jiddiy makrofiskal risklar bilan yuzma-yuz turibdi. Tashqi moliyaviy yordam mavjud bo‘lishiga qaramay, yuqori byudjet defitsiti, donor mablag‘lariga qaramlik, boshqaruv tizimidagi zaifliklar va institutsional islohotlarning yetarli darajada yakunlanmaganligi iqtisodiy barqarorlik uchun muhim xavf omillari bo‘lib qolmoqda [7].

Umuman olganda, tahlil natijalari Ukrainada inflyatsiya beqarorligi va iqtisodiy rivojlanish o‘rtasida murakkab bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatadi. Yuqori inflyatsion tebranishlar iqtisodiy noaniqlikni kuchaytirib, investitsion muhitga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi hamda iqtisodiy o‘shish sur‘atlarining izchil shakllanishiga to‘sqinlik qilishi mumkin.

Xulosa va takliflar.

Mazkur tadqiqotda Ukrainada inflyatsiya beqarorligi va iqtisodiy o‘shish o‘rtasidagi bog‘liqlik yillik makroiqtisodiy ma‘lumotlar asosida tahlil qilindi. O‘rganish natijalari shuni ko‘rsatdiki, Ukraina

iqtisodiyoti so'nggi yigirma yillikda yuqori makroiqtisodiy beqarorlik sharoitida faoliyat yuritgan bo'lib, inflyatsiya darajasidagi keskin tebranishlar iqtisodiy rivojlanishga sezilarli ta'sir ko'rsatgan.

Tahlil natijalariga ko'ra, Ukrainada inflyatsiya darajasi ayrim davrlarda juda keskin oshgan, ayniqsa 2014–2015-yillardagi geosiyosiy inqiroz, milliy valyutaning qadrsizlanishi va tashqi iqtisodiy bosimlar fonida inflyatsion beqarorlik kuchaygan. Shu bilan birga, yalpi ichki mahsulot dinamikasi ham bir maromda o'sish emas, balki iqtisodiy inqirozlar, urushlar va tashqi shoklar ta'sirida takroriy pasayish va tiklanish bosqichlarini boshdan kechirgan.

Olingan natijalar inflyatsiya beqarorligi va iqtisodiy o'sish o'rtasida salbiy bog'liqlik mavjudligini ko'rsatadi. Yuqori inflyatsion tebranishlar biznes subyektlari va investorlar uchun noaniqlikni oshiradi, uzoq muddatli investitsion qarorlarni cheklaydi, aholi xarid qobiliyatini pasaytiradi hamda iqtisodiy o'sish sur'atlariga bosim ko'rsatadi. Bu holat ayniqsa institutsional jihatdan zaif va tashqi omillarga sezgir iqtisodiyotlarda yanada yaqqol namoyon bo'ladi.

Shuningdek, Ukraina tajribasi shuni ko'rsatadiki, faqat monetar siyosat orqali inflyatsiyani nazorat qilish yetarli emas. Geosiyosiy xavflar, fiskal nomutanosiblik, tashqi moliyalashtirishga qaramlik hamda

ishlab chiqarish infratuzilmasining zaifligi iqtisodiy barqarorlikka bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

Birinchidan, Ukrainada narxlar barqarorligini ta'minlash maqsadida Markaziy bank tomonidan inflyatsion targetlash siyosatini yanada kuchaytirish, bozor ishtirokchilari uchun monetar siyosat bo'yicha aniq va shaffof kommunikatsiyani ta'minlash maqsadga muvofiq.

Ikkinchidan, milliy valyuta kursining keskin tebranishlarini yumshatish va import inflyatsiyasi ta'sirini kamaytirish uchun tashqi savdo va valyuta risklarini boshqarish mexanizmlarini kuchaytirish zarur.

Uchinchidan, iqtisodiy o'sishni faqat qisqa muddatli fiskal qo'llab-quvvatlash bilan emas, balki real sektorni rivojlantirish, ishlab chiqarish bazasini mustahkamlash va investitsion muhitni yaxshilash orqali rag'batlantirish lozim.

To'rtinchidan, geosiyosiy va institutsional risklarni kamaytirishga qaratilgan uzoq muddatli iqtisodiy islohotlarni jadallashtirish muhim ahamiyatga ega.

Kelgusidagi tadqiqotlarda inflyatsiya noaniqligini yanada aniqroq baholash uchun GARCH, VAR yoki boshqa ekonometrik modellar asosida chuqurroq tahlillar olib borish maqsadga muvofiq bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Friedman, M. (1977). Nobel lecture: Inflation and unemployment. *Journal of Political Economy*, 85(3), 451–472. <https://doi.org/10.1086/260579>
2. Ball, L. (1992). Why does high inflation raise inflation uncertainty? *Journal of Monetary Economics*, 29(3), 371–388. [https://doi.org/10.1016/0304-3932\(92\)90032-W](https://doi.org/10.1016/0304-3932(92)90032-W)
3. Obradović, S., Lojanica, N., & Janković-Milić, V. (2022). Inflation uncertainty and economic growth in transition economies: Evidence from selected emerging markets. *Economic Research-Ekonomska Istraživanja*, 35(1), 1–20.



4. International Monetary Fund (IMF). (2025). World Economic Outlook Database: Ukraine. Washington, DC: International Monetary Fund. Available at: <https://www.imf.org/en/Publications/WEO>
5. National Bank of Ukraine (NBU). (2025). Inflation Report. Kyiv: National Bank of Ukraine. Available at: <https://bank.gov.ua/en/monetary/report>
6. International Monetary Fund (IMF). (2025). International Financial Statistics (IFS) Database. Washington, DC: International Monetary Fund. Available at: <https://data.imf.org>
7. Organisation for Economic Co-operation and Development (OECD). (2025). OECD Economic Outlook 2025. Paris: OECD Publishing. https://doi.org/10.1787/eco_outlook-v2025-en